

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINING MIKROIQTISODIY SAMARADORLIGI

Shukurov. T. I.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

Salimova Sevinch Bekzod qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Iqtisodiyot fakulteti, 2 - kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19439333>

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatining mikroiqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda korxonada darajasida ishlab chiqarish hajmi, xarajatlar tarkibi, foyda darajasi hamda resurslardan foydalanish samaradorligi kabi muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rganilgan. Shuningdek, kichik biznes subyektlarining bozor sharoitida faoliyat yuritishi, raqobat muhitiga moslashuvi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni mikroiqtisodiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, taqqoslash va statistik usullardan foydalanilgan.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish hamda innovatsion faoliyatni kengaytirish orqali o'z iqtisodiy samaradorligini oshirishi mumkin. Tadqiqot yakunida kichik biznes faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, mikroiqtisodiyot, iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish hajmi, xarajatlar, foyda, rentabellik, bozor raqobati, resurslardan foydalanish.

MICROECONOMIC EFFICIENCY OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP

Abstract. This article analyzes the microeconomic efficiency of small business and private entrepreneurship. The study examines important economic indicators such as production volume, cost structure, profit level, and resource efficiency at the enterprise level. It also analyzes the role of small business entities in market conditions, their adaptation to the competitive environment, and ensuring economic stability based on a microeconomic approach.

Economic analysis, comparison, and statistical methods were used in the research process. The results show that small business and private entrepreneurship entities can increase their economic efficiency through the effective use of resources, cost optimization, and expansion of innovative activities. At the end of the study, scientific conclusions and practical recommendations were developed to improve the efficiency of small business activities.

Keywords: small business, private entrepreneurship, microeconomics, economic efficiency, production volume, costs, profit, profitability, market competition, resource use.

МИКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Аннотация. В данной статье анализируется микроэкономическая эффективность малого бизнеса и частного предпринимательства. В исследовании рассматриваются важные экономические показатели, такие как объем производства, структура затрат, уровень прибыли и эффективность использования ресурсов на уровне предприятия.

Также анализируется роль субъектов малого бизнеса в рыночных условиях, их адаптация к конкурентной среде и обеспечение экономической стабильности на основе микроэкономического подхода. В процессе исследования использовались методы экономического анализа, сравнения и статистического анализа.

Результаты показывают, что субъекты малого бизнеса и частного предпринимательства могут повысить свою экономическую эффективность за счет эффективного использования ресурсов, оптимизации затрат и расширения инновационной деятельности. В конце исследования были разработаны научные выводы и практические рекомендации по повышению эффективности деятельности малого бизнеса.

Ключевые слова: *малый бизнес, частное предпринимательство, микроэкономика, экономическая эффективность, объем производства, затраты, прибыль, рентабельность, рыночная конкуренция, использование ресурсов.*

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlari iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish hamda bozor raqobatini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, tadqiqotlarga ko'ra, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va o'rta biznes korxonalari umumiy korxonalar sonining asosiy qismini tashkil etadi hamda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda sezilarli ulushga ega.

Bu holat World Bank va OECD tomonidan e'lon qilingan rasmiy iqtisodiy tahlillarda ham ta'kidlab o'tilgan. Mikroiqtisodiyot nuqtai nazaridan kichik biznes korxonalari faoliyati ishlab chiqarish hajmi, xarajatlar darajasi, foyda miqdori hamda resurslardan foydalanish samaradorligi orqali baholanadi. Korxonalar darajasida ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilish iqtisodiy samaradorlikni aniqlash hamda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Shu sababli mikroiqtisodiy tahlil usullari kichik biznes subyektlari faoliyatini baholashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston iqtisodiyotida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim o'rin egallaydi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning bozor imkoniyatlarini kengaytirish hamda iqtisodiy samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, kichik biznes subyektlari mamlakat yalpi ichki mahsulotining muhim qismini shakllantiradi hamda bandlikni ta'minlashda katta ulushga ega. Bu ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi tomonidan e'lon qilinadigan rasmiy statistik hisobotlarda ham aks etgan.

Shu munosabat bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mikroiqtisodiy samaradorligini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada kichik biznes korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati, xarajatlar tuzilmasi hamda iqtisodiy natijalari mikroiqtisodiy yondashuv asosida o'rganiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligi masalasi ko'plab iqtisodchi olimlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan keng o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda kichik biznesning iqtisodiy o'sish, bandlik, innovatsiya va raqobat muhitini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida kichik biznes iqtisodiyotning muhim sektori sifatida e'tirof etiladi.

Xususan, OECD tadqiqotlariga ko'ra, kichik va o'rta biznes korxonalari ko'plab mamlakatlarda korxonalar sonining asosiy qismini tashkil etadi hamda umumiy bandlikning qariyb 70 foizini ta'minlaydi. Shuningdek, ushbu korxonalar iqtisodiyotda qo'shilgan qiymat yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va raqobat muhitini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Mahalliy iqtisodiy tadqiqotlarda ham kichik biznes samaradorligi turli jihatlardan o'rganilgan. Masalan, D. G'ofurov tomonidan olib borilgan tadqiqotda kichik biznes uchun soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinib, bunday imtiyozlar tadbirkorlik muhitini yaxshilashi va iqtisodiy faollikni oshirishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. N. Nabiyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik biznes iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash va hududiy rivojlanishni rag'batlantirishda muhim omil hisoblanadi, ammo moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi va eksport salohiyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi kabi muammolar ham mavjud. Bundan tashqari, ayrim tadqiqotlarda kichik biznesning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ham o'rganilgan. Masalan, N. Ajamilova tadqiqotida kichik biznesning investitsiyalar, sanoat ishlab chiqarishi va bandlik darajasiga ijobiy ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan hamda uning mintaqaviy iqtisodiyot samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatining mikroiqtisodiy samaradorligini o'rganish uchun bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy nazariya, statistik tahlil hamda mikroiqtisodiy modellashtirish yondashuvlariga asoslanadi.

Avvalo, tadqiqot jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining nazariy asoslarini o'rganish maqsadida ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda rasmiy statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Xususan, kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, ishlab chiqarish samaradorligi hamda resurslardan foydalanish darajasi bo'yicha ma'lumotlar World Bank, OECD hamda O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi tomonidan e'lon qilingan rasmiy hisobotlar asosida o'rganildi. Tadqiqotda iqtisodiy tahlil usuli yordamida kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish hajmi, xarajatlar darajasi, foyda miqdori hamda rentabellik ko'rsatkichlari o'rganildi. Ushbu ko'rsatkichlar korxonalar faoliyatining mikroiqtisodiy samaradorligini baholashda muhim omillar sifatida ko'rib chiqildi. Shuningdek, taqqoslash usuli yordamida turli davrlarda kichik biznes korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari o'zaro solishtirildi hamda ularning o'sish dinamikasi tahlil qilindi. Statistik tahlil usuli orqali esa iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarish tendensiyalari aniqlanib, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri baholandi. Bundan tashqari, mikroiqtisodiy yondashuv asosida korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati, xarajatlar tuzilmasi va foyda shakllanish jarayoni tahlil qilindi. Ushbu yondashuv kichik biznes subyektlarining resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash hamda ularning bozor sharoitida raqobatbardoshligini baholash imkonini beradi. Tadqiqot natijalarini yanada aniqroq ifodalash maqsadida jadval va diagramma usullaridan ham foydalanildi. Bu esa iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasini vizual tarzda ko'rsatish va tahlil natijalarini yanada tushunarli shaklda taqdim etishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari O'zbekiston iqtisodiyotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sektor iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va bozor raqobatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Mikroiqtisodiy nuqtai nazardan kichik biznes faoliyatining samaradorligi ishlab chiqarish hajmi, bozor ulushi, foyda ko'rsatkichlari hamda iqtisodiy qo'shilgan qiymat yaratish darajasi orqali baholanadi.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlarida yetakchi rol o'ynaydi. Jumladan, qishloq xo'jaligi, qurilish va xizmatlar sohasida kichik biznesning ulushi ayniqsa yuqori bo'lib, bu sektor iqtisodiy moslashuvchanlik va bozor talabiga tez moslashish imkoniyatini yaratadi. Ushbu ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi tomonidan e'lon qilingan rasmiy hisobotlarda qayd etilgan. Quyidagi jadvalda O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi so'nggi 5 yil davomida qanday o'zgarib borganligi keltirilgan.

O'zbekistonda kichik biznesning YAIMdagi ulushi

Yil	Kichik biznesning YAIMdagi ulushi (%)
2021	50.5
2022	48.5
2023	47.8
2024	46.7
2025	45.6

Jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda kichik biznesning YAIMdagi ulushi ma'lum darajada pasayish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Masalan, 2021 yilda ushbu ko'rsatkich 50,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilga kelib 45,6 foizga tushgan. Biroq bu holat kichik biznes faoliyatining pasayib borayotganini anglatmaydi. Aksincha, iqtisodiyotda yirik sanoat va investitsiya loyihalarining kengayishi natijasida iqtisodiy tuzilmaning o'zgarishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Masalan, mamlakatda 2021 yilda 436 mingdan ortiq kichik biznes subyektlari faoliyat yuritgan bo'lsa, 2024 yilga kelib ularning soni 614 mingdan oshgan. Bu esa tadbirkorlik muhitining rivojlanayotganini va bozor iqtisodiyotida kichik biznesning institutsional asoslari mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Mikroiqtisodiy tahlil shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlari iqtisodiyotda bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, ular ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Ikkinchidan, kichik biznes korxonalarini bozor talabiga tez moslashish xususiyatiga ega bo'lib, innovatsion mahsulot va xizmatlar yaratishda muhim rol o'ynaydi. Uchinchidan, ushbu sektor bandlikni ta'minlash orqali aholining daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tarmoqlar kesimida ham kichik biznesning ulushi yuqori ekanligi kuzatiladi. Masalan, qishloq xo'jaligi sohasida kichik biznesning ulushi 90 foizdan ortiqni tashkil etsa, qurilish sohasida bu ko'rsatkich qariyb 75 foizni tashkil etadi.

Xizmatlar sektorida ham kichik biznesning ulushi sezilarli bo'lib, iqtisodiy qo'shilgan qiymat yaratishda muhim o'rin egallaydi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omil bo'lib qolmoqda.

Garchi YAIMdagi ulushi ayrim yillarda nisbatan pasayish tendensiyasini ko'rsatgan bo'lsa-da, ushbu sektor iqtisodiyotning muhim drayveri sifatida iqtisodiy o'sish, bandlik va innovatsion rivojlanishga sezilarli hissa qo'shishda davom etmoqda.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari O'zbekiston iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi hamda ularning mikroiqtsodiy samaradorligini oshirish iqtisodiy barqarorlik va rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. So'nggi besh yil davomida kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish hajmi va sof foyda ko'rsatkichlari doimiy ravishda o'sib borgan bo'lsa, YAIMdagi ulushi biroz kamaygan. Bu holat iqtisodiyot tarkibida yirik sanoat va investitsiya loyihalarining ulushi oshgani bilan izohlanadi. Shuningdek, kichik biznes samaradorligini oshirishda bir qator omillar muhim ahamiyatga ega: resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish, bozor talabiga moslashuvchanlik va innovatsion texnologiyalarni joriy etish.

Shuningdek, kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq va kredit imtiyozlarini takomillashtirish ham iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, bandlik darajasini oshirish va innovatsion faollikni rag'batlantirishda hal qiluvchi omil bo'lib qolmoqda. Shu sababli, ushbu sektorni qo'llab-quvvatlash siyosatini yanada mustahkamlash va mikroiqtsodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. OECD. Strengthening SMEs and Entrepreneurship for Productivity and Inclusive Growth. OECD Publishing, 2023.
2. https://www.oecd.org/en/publications/strengthening-smes-and-entrepreneurship-for-productivity-and-inclusive-growth_c19b6f97-en.html
3. World Bank. Improved Access to Finance to Help 7000 Businesses in Uzbekistan Grow and Create Jobs. 2025.
4. <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2025/12/15/improved-access-to-finance-to-help-7000-businesses-in-uzbekistan-grow-and-create-jobs>
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati bo'yicha rasmiy hisobotlar (2021–2025).
6. <https://stat.uz/files/538/2025-Choraklik-natijalar-january--march-ang/3929/11-SMALL-BUSINESS.pdf>
7. Trend.az. Uzbekistan Small Business Development Statistics. 2024.
8. <https://www.trend.az/casia/uzbekistan/4003799.html>
9. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Kichik biznes faoliyati va iqtisodiy samaradorlik tahlillari.
10. https://stat.uz/img/press-revizlar/kb_eng_p74274.pdf
11. G'ofurov, D. Kichik biznes subyektlarida soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligi. Asian Economic and Policy Trends Journal, 2023.
12. <https://sci-p.uz/index.php/aapt/article/view/3039>
13. Nabiyeva, N. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish ko'rsatkichlari. Economic Innovation and Technology Trends, 2024.
14. <https://sci-p.uz/index.php/eitt/article/view/3205>
15. Ajamilova, N. Kichik biznesning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri. Green Economy and Development Journal, 2023.
16. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/4812>